

YOSH TADQIQOTCHI MINBARI

ТРИБУНА МОЛОДЫХ
ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

YOUNG RESEARCHERS
ROSTRUM

QADIMGI METALL BUYUMLAR VA TAQINCHOQLARINING RENTGEN FLUORESENT (XRF) TAHLILI

© 2025. Akbar Alibekov^{1,2}, Zamira Koraeva¹, Bekzod Avazgeldiyev¹

¹*Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti*

²*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

Kalit so'zlar: arxeologik artefaktlar, mis qotishmalari, taqinchoqlar, rentgen-fluoresent tahlili, energiya dispersli XRF spektrometri, namuna tayyorlash.

Taqdim etilayotgan ishda Samarqand arxeologiya institutining Axsikent arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1987-1989 yillarda Namangan viloyati Pop tumanida joylashgan qadimgi Bob (Pop) shahri qoldiqlari hisoblangan Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklarida olib borilgan qazishmalarda topilgan arxeologik artefaktlar rentgen-fluoresent tahlil usulidan foydalanib tadqiq qilindi. Tadqiqot jarayonida element tarkibi noma'lum bo'lgan 28 ta metall buyumlar (taqinchoqlar, kosmetik idishlar va boshqa zargarlik buyumlari) tekshirilgan namunalarda 17 tagacha kimyoviy elementlar aniqlangan - Al, Bi, Co, Cu, Fe, Mn, Ni, P, Pb, S, Sb, Si, Sr, Sn, Ti, Zn, Zr. Aniqlanishicha, tekshirilgan metall buyumlar tarkibida mis miqdori ~ 54% dan ~ 95% gacha bo'lgan turli xil mis qotishmalarida qo'rg'oshin (22,7% gacha), qalay (43,3,9% gacha) va rux (14,2% gacha) aralashmalari aniqlangan. Bronza uzugi tarkibida 18,9% temir borligi aniqlandi. Namunalarning element tarkibi Samarqand arxeologiya institutida mavjud portativ rentgen-fluoresent spektrometrida aniqlandi.

РЕНТГЕНОФЛУОРЕСЦЕНТНЫЙ АНАЛИЗ ДРЕВНИХ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ ИЗДЕЛИЙ И УКРАШЕНИЙ

© 2025. Акбар Алибеков^{1,2}, Замира Кораева¹, Бекзод Авазгелдиев¹

¹*Самаркандский институт археологии имени Я. Г. Гулямова*

²*Самаркандский государственный университет имени Ш. Р. Рашидова*

Ключевые слова: археологические артефакты, медные сплавы, украшения, рентгенофлуоресцентный анализ, энергодисперсионный XRF-спектрометр, подготовка образцов.

В представленной работе с помощью метода рентгенофлуоресцентного анализа исследованы археологические артефакты, найденные при раскопках, проведённых Ахсикентской археологической экспедицией Самаркандского Института археологии имени Я. Гулямова в 1987–1989 годах на памятниках Бalandтепа и Мунчактепа, являющихся остатками древнего города Баб (Пап), расположенного в Папском районе Наманганской области. В ходе исследования в анализируемых образцах 28 металлических предметов (бижутерия, косметическая посуда и другие украшения) с неизвестным элементным составом было выявлено до 17 химических элементов (украшения, косметические ёмкости и другие ювелирные предметы) — Al, Bi, Co, Cu, Fe, Mn, Ni, P, Pb, S, Sb, Si, Sr, Sn, Ti, Zn, Zr. Установлено, что в различных медных сплавах содержание меди в пределах от ~54 % до ~95 %. Кроме того, выявлены добавки свинца (до 22,7 %), олова (до 43,3 %) и цинка (до 14,2 %). В составе одного бронзового кольца обнаружено 18,9 % железа. Элементный состав образцов был определён с помощью портативного энергодисперсионного рентгенофлуоресцентного спектрометра Vanta Element в Самаркандском Институте археологии.

Kirish

Hozirgi O'zbekiston hududida arxeologik qazishmalar jarayonida arxeologlar ko'plab qadimiy artefaktlarni — metall buyumlar, shisha, sopol buyumlar, devoriy suratlar, metallurgiya shlaklari va boshqalarni ham topmoqdalar. Ushbu topilmalarning aksariyati asrlar davomida turli omillar ta'sirida shikastlanganligi sababli, ularni tavsiflash va aniqlash murakkablashadi. Ba'zan esa bu umuman imkonsiz bo'lib qoladi (masalan, obyektlarning parchalanish holati, tuproqning qalin qatlamlari yoki yuzadagi oksidlar sababli). Hozirgi kunda O'zbekistonda turli institut va muzeylar qoshida ko'plab arxeologik ekspeditsiyalar faoliyat yuritmoqda. Har bir arxeologik dala tadqiqotlari natijasida ko'plab moddiy madaniyat namunalari qo'lga kiritiladi. Ular orasida yuzlab qadimgi kulolchilik buyumlari, o'nlab metall buyumlar, qadimgi devoriy surat parchalari, ganch haykallar, shishadan yasalgan munchoqlar va boshqa artefaktlar bo'lishi mumkin. Ushbu arxeologik topilmalarni o'rganish arxeologlarga ularning yasalishi, texnologiyasi, tarqalish yo'llari, qo'llanilgan qadimiy usullar darajasi, shuningdek, qadimgi davlatlar o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalar haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

O'zbekistonda arxeologik obyektlarni o'rganishda tabiiy fanlar usullaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda. Jahon amaliyotida arxeologik topilmalarni o'rganishda ularning tarkibi va tuzilishini aniqlashga imkon beruvchi fizik-kimyoviy tahlil usullaridan — neytron faollashuvi, rentgen-fluoresent tahlili, rentgen fazali tahlili, Roman spektroskopiyasi, skanerlovchi elektron mikroskopiya, emissiya spektral tahlili, neytronografiya, rentgenografiya va boshqa metodlardan keng foydalanilmoqda. Bunday arxeologik artefaktlarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar yuzlab ilmiy nashrlarda o'z aksini topgan (Lutz, Pernicka 1996: 314–318; Mantler 2000: 5–7; Karydas 2007: 420–428; Ruzanova 2010: 431–435; Trentelman 2010: 159–165; Shackley 2011: 5–8; Bottaini 2012: 144–146; Charalambous 2014: 197–203; Mahnke 2014: 571–587; Tur, 2016: 740–745; Xramchenkova 2017: 97–103; Kumar 2017: 11; Bita Sodaei 2017: 137–142; Shayxutdinova 2017: 69–72; Daly 2018: 1662–1671; Clodoaldo 2018: 2–8; Sabirova 2019: 180–191; Mokrushin 2020: 14–23; Beysenov 2022: 175; Young 2023: 2–12). Shuni alohida ta'kidlash joizki, arxeologik topilmalarni o'rganishda zamonaviy tahliliy usullardan foydalanishning ahamiyati xalqaro darajada e'tirof etilgan, masalan: xalqaro atom energiyasi agentligi hujjatlarida bu borada ko'plab tavsiyalar keltirilgan (IAEA 2008: 175; 2011; 2017: 241; Olivera 2011).

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda arxeologik artefaktlarni fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanilgan holda o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarga oid ilmiy nashrlar soni kamchilikni tashkil etadi (Buryakov 1974: 140; Ruzanov 2006: 79–80; Inoyatov 2008: 220–222; Ruzanov, 2013: 204–208; 2021: 12–22; Ruzanova 2016: 20–31; Sharonov 2022: 120–130; Alibekov 2023: 1883–1885). O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida VVR SM reaktori negizida olib borilgan neytron tahlil usullarini (radiografiya, tomografiya va boshqalar) qo'llash bilan bog'liq keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarni alohida ta'kidlab o'tish joiz (Abdurakhimov et al 2021a: 1–6; Abdurakhimov 2021b: 1233). Biroq, arxeologlar uchun fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanilgan holda arxeologik artefaktlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish muammosi mavjud — bu arxeologlarning zamonaviy tahliliy uskunalar bilan texnik jihozlanishining yetarli emasligi bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtda sohada keng qo'llanilayotgan rentgen-fluoresent tahlili (RFT) usuliga alohida to'xtalib o'tamiz. U yetarlicha yuqori aniqlik bilan turli xil materiallarni xarakterli rentgen nurlar(XRN) asosida sifat va miqdoriy elementlar tahlil qilish imkonini beradi. Xarakterli rentgen nurlarining asosiy afzalliklaridan biri bu o'rganilayotgan obyektlarga zarar yetkazmasdan tahlil qilish imkonini berishdir. Bu, ayniqsa, arxeologik artefaktlar va turli madaniy meros obyektlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. RFT ning metodologik jihatlari, turli amaliy muammolarni, shu jumladan arxeologik muammolarni hal qilish bo'yicha birinchi tadqiqotlar nati-

jalari ko'plab ilmiy ishlarda ko'rib chiqilgan (Young 1957: 1–21; Matson 1960: 38; Bernard 1970: 62–68; Tite 1972: 1348). Bir necha o'n yillar oldin rentgen-fluoresent tahlillari faqat atom og'irligi Ca atom og'irligidan kattaroq bo'lgan kimyoviy elementlar haqida ma'lumot olish imkonini berdi (Young 1957: 18). Bunday holda esa arxeologik topilmalarning kimyoviy tarkibini o'rganishda juda muhim bo'lgan K, S, P, Si, Al, Mg, Na elementlari hisobga olinmay qolgan. Bugungi kunda natriydan boshlab, materiallardagi boshqa elementlarni ham aniqlaydigan zamonaviy qurilmalar mavjud. Masalan, SHIMADZU energiya dispersli rentgen-fluoresent spektrometrlari hamda EDX –7000, RIGAKU (11Na – 92U) va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Portativ XRN spektrometrlari (Vanta, Brucker, Skyray Explorer va boshqalar) 12Mg bo'lgan elementlarni aniqlashga qodir bo'lib, bu portativ spektrometrlar dastlab sanoatning turli sohalarida (geologik qidiruv, konchilik, metallurgiya va atrof-muhit monitoring) uchun mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, hozirgi kunda ular arxeologlar tomonidan ham keng qo'llanila boshlandi. Buning sababi shundaki, arxeologik artefaktlarni o'rganishda nafaqat laboratoriya sharoitida, balki buzilmaydigan tahlil usullaridan dala sharoitida ham foydalanish juda muhimdir.

Xususan, fizik va arxeolog olimlar hamkorligida olib borilayotgan tadqiqot ishining maqsadi arxeologik topilmalarni o'rganishda RFT usuli imkoniyatlar-




Рис. 1. 1 – Бронзовые пластинчатые стенки пиксиды. (P1); 2 – миниатюрные бронзовые крышки пиксиды. (P2); 3 – бронзовое кольцо со стеклянным глазком. (BZ1); 4, 4а – кулоны (бронзовые нагрудные украшения). (KT2); 5 – бронзовые пластины. Пластинчатые детали украшения. (KT1); 6 – кулон (бронзовые нагрудные украшения). (KT1); 7 – бронзовые полусферические предметы (кнопки, бляшки). (KT2)

Fig. 1. 1 – Bronze plate walls of pyxides. (P1); 2 – Miniature bronze pixy caps. (P2); 3 – A bronze ring with a glass eye. (BZ1); 4, 4а – Pendants (Bronze breast jewelry). (KT2); 5 – Bronze plates. Plate jewelry details. (KT1); 6 – The pendant. (Bronze breast jewelry). (KT1); 7 – Bronze semi-spherical domes (buttons, plaques). (KT2)

ini ko'rsatishdan iborat. Shu bois, taqdim etilgan maqolada biz rentgen-fluoresent tahlillari haqida ba'zi asosiy ma'lumotlarni qisqacha taqdim etishga harakat qilamiz.

Materiallar va tadqiqot usullari

Materiallar

Munchoqtepa nekropolida ko'plab metall buyumlar, shu jumladan zargarlik buyumlari topilgan (Анарбаев, Матбабаев 1998: 77–95). Ular orasida bronza zeb-ziynat va kosmetika buyumlari ayniqsa ajralib turadi. Bronza kosmetik qutilar (piksida), belbog', bronza to'qima zanjirli taqinchoqlar, bronza uzuk, kiyim taqinchoqlari va osma taqinchoqlarni o'rganish bizga mazkur davr aholisi kundalik hayoti, ularning estetik qarashlari va e'tiqodlari haqida ma'lumot beradi. Har bir bezak, har bir tafsilot o'z davrining an'analari, hunarmandchiligi va ma'naviy amaliyotlari haqida xulosa chiqarishga yordam beradi. Ushbu maqolada bronza buyumlari va ularning funksiyalari, ramziy mazmuni, madaniy kontekstdagi o'rni hamda fizik xususiyatlari tahlil qilinadi (Анарбаев 1990: 57–61; Анарбаев 1994: 12–13; Матбабаев 1987: 115–134; Матбабаев 1999: 124–140).

Farg'ona vodiysi tabiiy minerallar va metallarga boy hudud hisoblanadi. Ilk o'rta asr Farg'ona aholisi qadimiy davrlarda zeb-ziynat buyumlarini yaratishda ushbu resurslardan foydalanishni o'zlashtirgan. Munchoqtepa nekropolida bronza va temirdan yasalgan zeb-ziynat buyumlari topilgan bo'lib, ular uzuklar, belbog' to'plamlari, kiyim taqinchoqlari, osma taqinchoqlar va bronza kosmetik qutilardan iboratdir (Массон 1953: 27–28; Рахманов 2021: 4–8).

Osma taqinchoqlar (Bronzadan yasalgan ko'krak taqinchoq). (K1)

Bronzadan yasalgan ko'krak taqinchoq parchasi. Taqinchoq Munchoqtepa II nekropolning 2-qabrdan aniqlangan. Mahsulot ikkita lavhadan iborat: orqa qismi silliq, old qismi qolip yordamida quyilgan. Markazda to'rtburchak bezak firuza toshli ko'z joylashgan (balandligi 0,6 mm, uzunligi 1,1 sm, kengligi 1 sm, vazni 0,50 gr.). Ikki yon tomonida yumaloq elementlar mavjud. Uzunligi 4,3 sm, qalinligi 0,4 mm, kengligi 1,9 sm, vazni 1,93 gr. Shuningdek, bizning mahsulotimizga birlashtirilgan shaffof oq rangli shisha qo'shimchalari bo'lgan uchta dumaloq topilma bo'lagi mavjud (diametri 1,4–1,5 sm, balandligi 0,5–0,6 mm, vazni 1,94 gr). Parchalar korroziyaga uchragan. Faqat 5 ta parcha saqlangan. Analogiyalar noma'lum (1-rasm: 6).

Osma taqinchoqlar (K2)

Bronzadan yasalgan ko'krak taqinchoq parchasi; (K2) bronza ko'krak taqinchoqqa tegishli bir element parchasi; Munchoqtepa II nekropolining 1-sag'ananing 6-qabridan topilgan taqinchoq; Paxta ipiga o'tkazilgan osma taqinchoqning ikkita bo'lagi; O'lchamlari: uzunligi 0,8–1 sm, kengligi 0,4–0,7 mm, qalinligi 0,4 mm (1-rasm: 4a).

Osma taqinchoqlar (K3). Osma taqinchoq Munchoqtepa II, 8-qabridan topilgan. 4 ta bronzadan yasalgan yuqqa lavhadan iborat lolasimon osma taqinchoq. Hajmi: uzunligi 1,6 sm, qalinligi 0,4 mm, kengligi 0,9 mm, vazni 0,58 g. Parchalar korroziyaga uchragan, ba'zi joylarda temir qoldiqlari bor (1-rasm: 4).

Bronza kosmetik qutilar "piksida". Munchoqtepa nekropolida topilgan kosmetika saqlash qutilari bronzadan tayyorlangan bo'lib, silindrsimon shaklga ega. Munchoqtepa II nekropolining yer osti qabrlaridan jami 8 dona piksida aniqlangan (1-sag'ananing 1-qabridan; 9-sag'anadan; 5-sag'ananing B, B-4, B-5, B-8, G-6p qabrlar qatorlaridan), yakka qabrlarda esa 7 dona (1,2,5,6-qabrlarda) (1-rasm: 1). Bu qutilarning 9 ta namunasi past silindrsimon shaklda bo'lib, gumbazsimon qopqoq va devorlarida teshiklar mavjud. Ular ingichka, ikki qavatli bronza yassi lavhalaridan tayyorlangan (1-rasm: 2) bo'lib, tashish va kundalik foydalanish uchun qulay hisoblangan.

Piksidalarni devorlari yuqori badiiy mahoratda ishlangan bo'lib, donachali bezak usuli (zern) bilan bezatilgan — bu qadimiy zargarlikda keng qo'llanilgan texnikada bajarilgan ish hisoblanadi. S shakildagi naqshlar, tarqoq donachalar va zigzagsimon bezaklar ularning estetik qimmatini oshiradi. Ayrim qutilar teri va matodan tikil-

gan maxsus g'iloqlarga joylashtirilgan bo'lib, bu ularning qadrlanganligini ko'rsatadi.

Kosmetika saqlash qutilari kukunlar, yog'lar va hidli moddalarni saqlash uchun xizmat qilgan. Ularning funkcionalligi estetika bilan uyg'unlashib, bunday buyumlarni nafaqat amaliy, balki san'at obyektiga aylantirgan. Bronza piksidalar donachali bezak (inkrustatsiya) yoki emal bilan bezatilgan bo'lib, ularga qo'shimcha joziba bag'ishlagan.

Piksidalar (yunon. samshit) – bu dumaloq yoki tuxum shaklidagi quti bo'lib, bronza, yog'och, fil suyagi, metall yoki loydan tayyorlangan. Ular ko'pincha relyefli, o'ymakorlik bezaklari yoki rasmlar bilan bezatilgan. Piksidalar zargarlik buyumlari, oq va qizil kukunlar, malhamlar va ziravorlarni saqlashda ishlatilgan.

Bronza to'qima zanjir: (ZT1), (ZT3), (ZT4), (ZT5).

Bronza to'qima zanjir taqinchoqlar Munchoqtepa II nekropolining 2-qabridan topilgan. Bu zanjir parchalari to'qima, yassi oval shakldagi bo'g'inlardan tashkil topgan bo'lib, bronzadan yasalgan taqinchoq fragmentlaridir. Halqalar o'lchami 0,5–0,3 mm. Ba'zilarida mato parchalari saqlanib qolgan. Ko'rinishidan, ular marhumani tashqi kiyimiga bezak sifatida tikilgan. Umumiy og'irligi 16,44 g. Topilgan 8 ta zanjir bo'lagi: 1) 1,3 sm, 2) 2 sm, 3) 2,3 sm, 4) 3,2 sm, 5) 4 sm, 6) 5,1 sm, 7) 5,2 sm, 8) 9,6 sm. Zanjir fragmentlari shikastlangan, singan va korroziya bilan qoplangan.

Zanjirlarga analogiyalar asosiy Kavkaz tizmasining etagidagi Dombay qishlog'ida joylashgan qabrda aniqlangan. Topilmalari Stavropol muzeyida saqlanayotgan ushbu qabrdan yarim metr chuqurlikda, bizdagi zanjirlarga o'xshash, bronza zarhal halqalardan yasalgan 0,65 m kattalikdagi zanjir topilgan.

Bronza shisha ko'zli uzuk

Bronza uzuk Munchoqtepa II nekropolining 2-qabridan topilgan. Tasnifi: ustida oq shishadan yasalgan ko'z mavjud. Uzuk to'rtburchak shaklda bo'lib, burchaklari biroz yumaloqlashtirilgan. Shuningdek, yumaloq shaklga ega bo'lgan, och oq rangdagi shisha ko'zli dumaloq qalqon bilan bezatilgan. Uzukning o'lchamlari: diametri 2,3 sm, balandligi 2,6 sm, qalqon diametri 1,3 sm, qalqon balandligi 0,7 mm, vazni 5,64 g. Uzuk to'liq quyma shaklda yasalgan, shikastlanmagan. Qalqon va ko'z uyasi alohida tayyorlanib, keyinchalik payvandlangan. Uzuk aylanasi yumaloq yarim doira shaklida, kesmi – yumaloq. Tuzilishi: halqaga yopishtirilgan.

Uzuk asosi:

- Umumiy shakli — aylana oval.
- Tuzilish — mustahkam, bir butun.
- Chekka shakli — biroz deformatsiyalangan.
- Qalqon joylashgan joy — halqa.
- Qalqonning halqa bilan aloqasi — harakatsiz, bir tekislikda.
- Halqa burchagi — to'g'ri burchak ostida.
- Ko'z uchun mo'ljallangan oq shisha singan, yumaloq doira shaklida (1-rasm: 3).

Belbog' to'plami. O'lchamlari: uzunligi 2,1 sm, qalinligi 0,3 mm, kengligi 0,7-0,9 mm, vazni 2,10 g. Topilma bo'laklari korroziyaga uchragan. Faqat 2 ta topilma bo'lagi mavjud. Ikkala uchi ham Munchoqtepa II qabristonidan D-1 qatoridagi joylashgan D qabrdan, bel suyak yaqinidan topilgan. Yaqinida ikkita temir pichoq, xanjar va kamar qismi aniqlangan.

Kiyim taqinchoqlari (bezaklari).

Bronza lavhalar — lavhali bezak topilma bo'lagi (KT1)

Bronza lavhalar Munchoqtepa II nekropolining 5-sag'adan D-12-qabridan topilgan. O'lchami: Uzunligi 2,6 sm, kengligi 0,1 mm, qalinligi 0,4–2,1 sm, og'irligi 1,13 gr. Bezak bo'lagi mato qoldiqlari mavjud (1-rasm: 5).

Yana bir bronza lavha mato parchasi bilan 5-sag'adan D-3-qabridan topilgan. O'lchami: uzunligi 0,9–1,7 sm, kengligi 0,4–1,6 sm, qalinligi 0,1 mm, og'irligi 1,0 g. Bezak bo'lagi mato

qoldig'i mavjud, korroziyaga uchragan. Jami 11 fragment, ulardan birida mato parchasi aniqlangan.

To'liqsimon qirralari yassi yumaloq bezak lavhacha (KT2)

Munchoqtepa II nekropolining 2-qabridan topilgan. Yassi yumaloq bezak lavhacha shaklidagi bronza parcha bo'rttirma usulda ishlangan. O'lchami : diametri 2,8 sm, qalinligi 0,05 mm. Ustiga kichik yarim sharli yumaloq bronza gumbazchalar joylashtirilgan. Yassi yumaloq bezak lavhacha yuqa bronzadan yasalgan bo'lib, ikkita bo'lakdan iborat. Orqa tomonida yopishtirilgan mato bo'lagi saqlanib qolgan. Uning ustida bitta yarim sharli gumbazcha (diametri 6,5 mm, qalinligi 0,05 mm) mavjud. Bronza yassi yumaloq bezak lavhachaning ikkita bo'lagi (uzunligi 4 sm, qalinligi 2,1 sm, umumiy og'irligi 1,88 g.). To'liqsimon qirralari yassi yumaloq bezak lavhachaning devorlari qisman buzilgan. Bir lavhachada faqat bitta yarim sharli gumbaz, boshqa lavhachada esa uchta to'liqsimon qirra va bitta yarim sharli gumbaz saqlanib qolgan. Bronza lavhachalarning jami 5 ta bo'lagi aniqlangan.

Bronzadan yasalgan yarim sharsimon gumbazchalar (knopkalar, blyashkalar). (KT3)

Bronzadan yasalgan yarim sharsimon gumbazchalar (knopkalar, blyashkalar) Munchoqtepa II nekropolining 2-qabridan topilgan. Bu rozetkaning yarim sharsimon gumbazcha fragmentlari bo'lib saqlanish sifati yomon — kuchli oksidlangan, ba'zilar singan. Gumbazchalar silliq, yumaloq, sharsimon shaklda. O'lchamlari: diametri 0,7–0,8 mm, qalinligi 0,1 mm, vazni 0,68 g. Fragmentlar korroziyaga uchragan. Jami 16 ta parcha aniqlangan (1-rasm: 7).

Temir pichoqning bir bo'lagi Munchoqtepa II, 2-qabridan topilgan. Yog'och tutqichi temirni tozalash jarayonida juda yomon saqlanib qolganligi sababli yo'q qilingan.

2.2. Rentgen-fluoresent tahlil (RFT) usuli

Rentgen nurlarini tahlil qilish usullarining zaruriy sharti 1895 yilda nemis fizigi Rentgen (Wilhelm Conrad Röntgen) tomonidan yangi turdagi nurlanishning kashf etilishi bo'lib, uni rentgen nurlari deb nomlangan (Röntgen 1985: 132; Röntgen 1998: 9). 1913 yilda ingliz fizigi Mozili (Henry Gwyn Jeffreys Moseley) barcha kimyoviy elementlarning rentgen spektrlari bir xil xarakterli chiziqlar guruhini tashkil etishini aniqladi. Bu har bir chiziq uchun belgini kiritish imkonini beradi. Bunday holda, ikkilamchi nurlanishning rentgen spektridagi chiziqlarning o'tishlari atom raqamining bittaga ko'payishi bilan bir xil miqdorda siljiydi (Moseley 1913a: 1028; Moseley 1913b: 709). Nurlanish energiyasi va elementning atom raqami o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish orqali Moseley rentgen spektroskopiyasida elementlarni aniqlash uchun asos yaratdi. Bu esa materiallarni tadqiq qilishning bir qator yo'nalishlarini keltirib chiqardi.

Modda rentgen nurlari bilan nurlantirganda, moddani tashkil etuvchi atomlar ionlanadi, bu yadroga eng yaqin atom K-orbitalidan (eng kam energiyaga ega energiya darajasi) elektronni urib chiqarishdan iborat. Olingan bo'sh joy darhol yuqori darajadagi elektron bilan to'ldiriladi (L-, M-, N- va hokazo, orbitallar). Elektronlarning quyi energiya darajalariga o'tishi nurlanish bilan birga keladi, uning energiyasi (to'lqin uzunligi) kimyoviy elementning atom raqamiga bog'liq bo'lgan tegishli atom orbitallarining energiyalariga bog'liq. Shuning uchun bunday elektron o'tishlar bilan birga keladigan rentgen-fluoresent nurlanishining energiyalari har bir element uchun individualdir va K-, L-, M — chiziqlar to'plamidan iborat xarakterli energiya spektrini hosil qiladi. Yengil elementlar faqat K-chiziqlarni, o'rta elementlar K- va L-chiziqlarni, og'ir elementlar K-, L-, M-chiziqlarni hosil qiladi.

RFT spektrometrida tadqiqotlarni o'tkazishda spektrometrning detektori o'rganilayotgan moddaning atomlaridan chiqadigan ma'lum energiya bilan rentgen nurlanishini aniqlaydi. Ushbu nurlanishning energiya spektri ko'p kanalli analizator spektrometrining mos keladigan energiya kanallari o'rtasida taqsimlanadi. Zamonaviy RFT spektrometrlarining dasturiy ta'minoti spektral ma'lumotlar kutubxonasini o'z ichiga oladi, unda kimyoviy elementlarning xarakterli spektral chiziqlari energiyalari va elementlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa xususiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Spektrometr dasturi o'lchangan spektrdagi spektral cho'qqilarning energiyalarini ushbu kutubxonadagi kimyoviy elementlarning xarakterli spektral chiziqlari bilan taqqoslaydi.

Agar nurlanish cho'qqilari kutubxona ma'lumotlariga to'g'ri kelsa, o'rganilayotgan moddada u yoki bu elementning atomlari borligini aytish mumkin. Bu sifat elementar tahlilning asosidir.

Faqat energiyalarni emas, balki xarakterli spektral chiziqlarning intensivligini ham o'lchash o'rganilayotgan namunadagi har bir kimyoviy elementning miqdoriy tarkibi haqida gapirishga imkon beradi (miqdoriy element tahlil). Miqdoriy RFT kalibrlash grafigi usuli yordamida amalga oshiriladi. Elementlar tarkibi noma'lum bo'lgan namunani o'rganishda zaruriy taqqoslash namunalari tayyorlashda qiyinchiliklar muqarrar ravishda yuzaga keladi. Taqqoslash namunalari kerakli soni bo'lmasa, asosiy parametrlar usuli (APU) deb ataladigan standart bo'lmagan RFT usuli qulayroq hisoblanadi. Asosiy parametrlar usuli noma'lum tarkibga ega ko'p elementli namunalardagi kimyoviy elementlar tarkibini miqdoriy tahlil qilishda muvaffaqiyatli qo'llaniladi, shuning uchun biz uni o'z tadqiqotlarimizda qo'lladik.

Rentgen-fluoresent tahlilning nazariy asoslari, uni sanoatning turli sohalarida qo'llash, atrof-muhitni tahlil qilish, sud-tibbiyot ekspertizasi va boshqalar IAEA texnik hujjatlarida, asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilarning o'quv materiallarida va boshqalarda batafsil bayon etilgan (IAEA-TECDOC-950: 55; IAEA-TECDOC-1456: 251; Van Grieken, Markowicz 1993: 718; Ron Jenkin 2000: 13274; Beckhoff 2006: 898).

Tadqiqotimizni o'tkazish uchun Samarqand arxeologiya instituti-da mavjud portativ rentgen-fluoresent spektrometridan foydalandik.

2.3. Tahlil uchun namuna tayyorlash

Artefaktlarni tashqi begona qoplamalardan mexanik tozalash uchun Cordless Combtool FERM qurilmasidan foydalanildi. Maxsus qo'shimchalar yordamida ob'ektlar yuzasidan toshlangan tuproq va oksidlarning qattiq qatlamlari olib tashlandi. Mexanik tozalash operatsiyasi tozalanayotgan qatlamlar ostida joylashgan bo'lishi mumkin bo'lgan artefaktlarning dizayn elementlariga (tasvirlar, yozuvlar, badiiy o'yma va boshqalar) zarar bermaslik uchun juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirildi.

Artefaktlarni kimyoviy tozalash uchun biz Trilon B (EDTA, EDTA-2Na) preparatidan foydalandik. Trilon B etilendiamintetraasetik kislotaning (Dinatrii aethylendiamintetraacetat) disodiy tuzi bo'lib, kompleks hosil qiluvchi moddalar guruhiga kiradi. Kimyoviy formula – $C_{10}H_{18}N_2Na_2O_{10}$. Preparat bronza va boshqa rangli metall buyumlarni korroziya mahsulotlaridan, yomon eriydigan oksid-tuz va karbonat-kaltsiy qotishmalaridan tozalash uchun muvaffaqiyatli qo'llaniladi. (Пршибил 1975: 533; Шемаханская 1989: 156; Никитин 1990: 236; Степина 2020: 62). Uning ishlashi suvda erimaydigan metall tuzlaridan metall ionlarini deyarli barcha tuzlari suvda eriydigan natriy ionlari bilan almashtirishga asoslangan. Trilon B yordamida deyarli barcha suvda erimaydigan korroziya mahsulotlarini, masalan, oksidlar, gidroksidlar, karbonatlar, fosfatlar, sulfatlar va eng muhimi, juda yuqori qattiqlikka ega bo'lgan va juda qiyinchilik bilan olib tashlanadigan yomon eriydigan mis oksidi (kuprit) eritish mumkin.

Trilon B suvda va ishqorlarda yaxshi eriydi, spirtida juda oz eriydi. Issiq suvda eritilganda preparatning samaradorligi oshadi. Suvda eruvchanligi $20^{\circ}C$ haroratda 108 g/l , $80^{\circ}C$ haroratda esa 236 g/l . Korroziya mahsulotlari Trilon B ning 10% issiq eritmasida (maksimal eritma to'yinganligida) eng samarali tarzda chiqariladi, shuning uchun tahlil qilingan namunalarni qayta ishlash qizdirilgan issiqlikka bardoshli shisha idishda amalga oshirildi. Bir xil oqimni ta'minlash va kimyoviy reaksiyani tezlashtirish uchun eritma vaqti-vaqti bilan shisha tayoq bilan aralashtiriladi. Tozalanayotgan artefaktlar vaqti-vaqti bilan eritmadan chiqariladi, oqadigan suv bilan yuviladi, reaksiya mahsulotlarini olib tashlash uchun cho'tka bilan tozalanadi va kerak bo'lganda yana eritma ichiga joylashtiriladi.

Trilon B eritmasida namunalarni tozalash nazorat ostida amalga oshirildi. Buning sababi, arxeologik mis ob'ektlari ko'pincha kristallararo korroziyaga ta'sir qiladi, shuning uchun Trilon B ga uzoq vaqt ta'sir qilish metallning bo'linib ketishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari,

eritmada erigan mis tuzlari to'planishi sababli ko'k rangga aylanganda, namuna yuzasini keraksiz mis qoplamasi bilan yopilib qolishining oldini olish uchun eritma yangisi bilan almashtirildi.

Har bir namuna boshqa namunalardan alohida ishlangan. Bunday holda, bitta ob'ektni tozalash uchun ishlatiladigan preparatning eritmasi hech qanday holatda boshqa narsalarni tozalash uchun ishlatilmasligi kerak, chunki bitta namunadagi erigan korroziya mahsulotlarining kimyoviy elementlari boshqa namunaning yuzasiga joylashtirilmasligi kerak.

Kimyoviy tozalashdan so'ng namunalar suv bilan yaxshilab yuvilgan, quritilgan va keyingi rentgen-fluoresent tahlili uchun etiketli polietilen paketlarga qadoqlangan.

Natijalar va munozaralar

Namunalarning element tarkibi Samarqand arxeologiya institutida mavjud portativ rentgen-fluoresent spektrometri yordamida amalga oshirildi. Namunalar havo atmosferasida nurlangan. Asosiy parametrlar usuli ishlatilgan.

Materiallarning tadqiqot jarayonida kodlanishi

Piskidalar

Bronzadan yasalgan lavhali piksidani devorlari. (P1)

Bronzadan yasalgan miniatyurali piksidaning qopqog'i. (P2)

Bronza piksidaning devor fragmentlari. (P3)

Bronzadan yasalgan miniatyurali piksidaning qopqog'i. (P4)

Bronza piksidaning devor fragmentlari. (P5)

Bronzadan yasalgan miniatyurali piksidaning qopqog'i. (P6)

Bronzadan yasalgan miniatyurali piksidaning qopqog'i. (P7)

Bronzadan yasalgan piksidani devorlari. (P8)

Bronzadan yasalgan piksidani devorlari. (P9)

Bronza piksidaning devor fragmentlari. (P10)

Bronza piksidaning devor fragmentlari. (P11)

Bronza piksidaning devor fragmentlari. (P12)

Bronza piksidaning devor fragmentlari. (P13)

Taqinchoqlar va bezaklar

Kiyim taqinchoqlari

Bronza lavhachalar. Yassi bezak detallar.(KT1)

To'liqsimon chekkali yumaloq bezak lavhacha. (KT2)

Bronzadan yasalgan yarim sharsimon gumbazchalar (knopkalar, blyashkalar). (KT3)

Osma taqinchoqlar.

Osma taqinchoqlar (Bronzadan yasal ko'krak taqinchoq). (K1)

3.2 Bronzadan yasal ko'krak taqinchoq parchasi. K2 bronza ko'krak taqinchoqqa tegishli bir element parchasi. (K2)

Osma taqinchoqlar (Bronzadan yasal ko'krak taqinchoq). (K3)

Zanjirli taqinchoqlar.

Bronza to'qima zanjir. (ZT1)

Bronza to'qima zanjir. (ZT2)

Bronza to'qima zanjir. (ZT3)

Bronza to'qima zanjir. (ZT4)

Bronza to'qima zanjir. (ZT5)

Bronza uzuk

Bronza shisha ko'zli uzuk.(BZ1)

Belbog' taqinchoqlari

Belbog' to'plami.(BT1)

Belbog' to'plami. (BT2)

Temir pichoq

Temir parchasi.(TP1)

Tahlil qilish uchun taqdim etilgan metall artefaktlarning xarakterli rangi ular mis qotishmalaridan tayyorlanganligini aytishga imkon beradi (istisno bitta temir bo'lagi). Hatto qadimgi davrlarda ham bronza va latun kabi mis qotishmalari ma'lum bo'lgan. Birinchi bronza qotishmalarining asosi mis va qalay edi, qotishmadagi qalay miqdori 10-12 % ga yetdi. Metallurgiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan qalaysiz bronzalar paydo bo'la boshladi, ularda qalay boshqa komponentlar (qo'rg'oshin, temir, berilliy, mishyak va boshqalar) bilan almashtirildi. Latunda asosiy komponent ham mis, ammo qalay o'rniga rux ishlatiladi, uning qotishma tarkibidagi miqdori 30-35% ga etishi mumkin.

O'rta Osiyo, Qozog'iston, Janubiy Ural qadimiy yodgorliklaridan (qadimgi Sharq tipidagi metall, dasht qabilalarining metalli va boshqalar) mis va bronza buyumlarini o'rganuvchi tadqiqotchilar buyumlar metallini bir necha metallurgiya guruhlariga ajratadilar. Asarlarda, masalan, (Рузанов 2013: 347, Епимахов 2019: 432) bu guruhlar: "sof" mis; mis mishyak (As 0,1–1,0%); kumush mis (Ag 0,1–1,0%); qalay bronza (Sn 0,8–7%); qo'rg'oshin bronza (Pb 1–4%); qo'rg'oshin-qalay bronza (Sn 0,8-7%, Pb 1–5%); mishyak bronza (1-4%); qo'rg'oshin-mishyak bronza (Pb va As – 10–12% gacha); qalay-surma-mishyak bronza (Sn >10%, Sb >1% va As >1%); nikel bronza (Ni 1,0–5,0%). Shuni ta'kidlash kerakki, arxeologlar tomonidan kiritilgan "sof mis" tushunchasi va undan ham ko'proq "kimyoviy toza mis" (Шубин 2015: 79), juda shartli, chunki mis miqdori yuqori bo'lgan deyarli barcha mahsulotlar boshqa elementlarning aralashmalarini o'z ichiga olishi mumkin, masalan: As (3% gacha), Pb (3% gacha), Sn (2% 0 ga qadar) va boshqalar (Tylecote 2002: 205; Рузанов 2013: 347; Шубин 2015: 79; Епимахов 2019: 432). Misol uchun Eron, Rodeziya, SSSR va Turkiyadagi turli konlardan olingan mahalliy mis ko'rinishidagi dastlabki metall xomashyosida Ag 0,6% gacha, 1,0% gacha, Pb 0,3% gacha, Sb 0,4 % gacha, Ni 0,5% gacha bo'lgan aralashmalar topilgan (Tylecote 2002: 205). Keng tarqalgan kulrang mis rudalarida kimyoviy elementlarning o'rtacha miqdori quyidagicha bo'lishi mumkin: Cu 13,5%, S 23,1%, Fe 19,7%, Sb 5,7%, As 0,9% (0,8% dan 5% gacha), Zn 1,1% (Tylecote 2002: 205). Eritilgan birlamchi misda kimyoviy elementlarning tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin: Cu 90-96%, Fe 2,4%, S 0,6%, Pb + Sn 0,5%. Hatto Cu tarkibi 99,8% bo'lgan tozalangan misda ham Fe 0,05%, Sn 0,05%, Pb 0,04%, Pb 0,05% aralashmalari kuzatiladi (Tylecote 2002: 205).

Elementar tarkibi noma'lum bo'lgan namunalarda 17 tagacha kimyoviy elementlar aniqlangan - Al, Bi, Co, Cu, Fe, Mn, Ni, P, Pb, S, Sb, Si, Sr, Sn, Ti, Zn, Zr.

Piksidalar.

Tekshirilayotgan piksidalarning rentgen-fluoresens tahlili natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Tahlil piksidalarning har birida uchtadan nuqtasida tekshirilib o'rtachasi foizlarda keltirilgan.

1-jadval piksidalar element tarkibi. (natijalar % hisobida keltirilgan)

№	Na-muna	Al	Si	S	Fe	Ni	Cu	Zn	Sn	Pb
1	P1	0.41	0.522		0.044	0.024	93.67	0.053	3.380	1.774
2	P2				0.291		69.06		30.60	0.049
3	P3	0.60	0.656	0.042	0.238	0.025	95.22	0.152	1.943	0.582
4	P4		0.572	0.417	0.761	0.083	54.52	0.003	43.30	0.042
5	P5	0.56	0.92	0.595	0.164	0.020	92.87	0.547	3.474	0.616

6	P6	0.94	1.090		0.127		74.54		23.19	0.065
7	P7	0.75	0.657	0.107	0.252		75.49		22.62	0.071
8	P8				0.341	0.017	80.91	0.059	8.87	9.61
9	P9	0.74	1.635	0.289	0.275	0.033	88.44	0.480	3.958	4.020
10	P10		0.673	1.074	0.262	0.023	94.52	0.168	2.268	1.004
11	P11		0.305			0.021	95.33	0.175	2.777	1.388
12	P12	0.77	0.974	0.047	0.232	0.027	94.18	1.852	1.606	0.207
13	P13	0.71	0.629		0.215	0.027	94.70	1.611	1.790	0.262

Namunalar tashqi ko'rinish va tarkibi bo'yicha ham bir-biridan farq qiladi. P1.3, P1.10, P1.11, P1.12, P1.13 piksidalarda mis miqdori yuqori (94.18%-95.33%) qolgan tashkil etuvchilar umumiy 5% atrofida (1-jadval). Asosan bronzani tashkil etuvchilari hisoblangan rux, qalay, qo'rg'oshinlar miqdori talab etiladigan darajaga yetmaydi shuning uchun klassifikatsiya bo'yicha (Рузанов 2013: 347; Епимахов 2019: 432) P3, P10, P11, P12, P13 piksidalarning metallini "sof" mis deb tasniflash mumkin.

Qolgan piksidalar tarkibi bo'yicha asosiy tashkil etuvchisi mis 54.52%–93.67% ni tashkil qiladi. Bronzaning keyingi tashkil etuvchilari bo'lgan rux, qalay va qo'rg'oshinlar miqdor jihatdan qalayning miqdori yuqori. Qalay miqdori 3.38% dan 43.3% gacha tashkil qilmoqda (1-jadval). Faqatgina P8 va P9 piksidalarda qo'rg'oshinning miqdori qalayga nisbatan qisman yuqori.

Tahlil natijalariga ko'ra, piksidalar asosan qalay bronzadan yasalgan, ayrimlarida esa qalay miqdori ~ 22-43% gacha yetgan. Qalayning 25% gacha qo'shilishi qotishmaning maksimal qattiqligi va mustahkamligini ta'minlaydi. Kontsentratsiyasining yanada oshishi bronza mustahkamligining pasayishiga olib keladi va u mo'rt bo'lib qoladi (Tylecote 2002: 205; Осинцев 2004: 297–315; Адаскин 2009: 282).

Taqinchoq va bezaklar.

Taqinchoq va bezaklarning rentgen-fluoresent tahlili natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Eslatib o'tamiz, taqinchoq va bezaklar hech biri butun saqlanmagan, shu sababli ularning har biri bitta namuna hisobida olinib, namunalar bir necha marta tahlil qilingan: ularning yuza qismidan kamida uch martadan tahlillar o'tkazilgan va jadvalda tahlil natijalarining o'rtachasi keltirilgan. Tahlil natijalarida bir turdagi namunalar ham butunlay farq qilishi, bizning taxminlarimizni tasdiqladi. Misol tariqasida kiyim taqinchoqlarining natijalarini keltirishimiz mumkin.

Kiyim taqinchoqlarining ikkitasi qalayli bronzadan tayyorlangan. Ularda qalayning miqdori 17.9% (KT2) va 27.8% (KT1) ni tashkil qiladi. Faqat bittasida qo'rg'oshin 9.7%, rux 7.82% va qalay 6.99%ni tashkil qiladi va bu yuqoridagi ikkitasidan butunlay boshqacha tayyorlangan, ya'ni bu o'zi alohida ekanligidan darak beradi (2-jadval).

Tadqiq qilingan uchta kulon bo'laklari tahlil natijalari taqinchoqlar latundan tayyorlanganligini ko'rsatmoqda. Lekin miqdor jihatdan bir biridan farq qiladi. K1 kulonda rux miqdori 13.4%, qalay 3.04% qo'rg'oshin 1.5%ni tashkil qilsa K2 osma taqinchoq rux 8.11%, qalay 2.89% qo'rg'oshin 2.08%, K3 osma taqinchoqda rux 11.7%, qalay 3.37%, qo'rg'oshin 1.24% tashkil qilmoqda. K2 osma taqinchoq qolgan ikkitasidan tarkibida temir (12.5%) mavjudligi bilan farq qiladi (2-jadval). Bu esa K2 osma taqinchoq qadimda istemoldan chiqib qolgan metal (taqinchoqlar, uy ro'zg'or buyumlari yoki qurol yaroqlar) buyumlaridan qayta eritish natijasida tayyorlangan bo'lishi mumkinligi bilan tushuntirish mumkin.

Tadqiqotlarda bir dona bronza uzugi BZ1 ko'rilgan bo'lib tahlil natijalariga ko'ra ruxning miqdori (11.1%) yuqoriligi sababli buni latun deb sinflash mumkin. Lekin tarkibida temir miqdorining yuqoriligi uzuk metal buyumlarni qayta ishlash natijasida tayyorlangan deyishimiz mumkin. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki mis rudalarida eritilib olingan birlamchi mis metalida temir miqdori 2.4% dan

oshmaydi. (Tylecote 2002: 205).

Qadim zamonlarda metall juda katta qiymatga ega edi, shuning uchun qadimgi temirchilar eritish va zarb ishlab chiqarishdan metall chiqindilarini, istemoldan chiqib qolgan mahsulotlarni, asboblar va qurollarning parchalarini, singan zargarlik buyumlarini va boshqa chiqindi metallarni yig'ishgan. Bu metallarning barchasi turli metall iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishda qayta ishlatilgan. Bu ko'plab qadimiy metall artefaktlarning murakkab element tarkibini tushuntiradi, bu ko'pincha metallni ma'lum metallurgiya guruhlariga aniq belgilashga imkon bermaydi. Shuning uchun biz tahlil qilgan iste'mol buyumlari (iste'mol tovarlari) ana shunday parchalar yordamida tayyorlangan deb taxmin qilamiz.

Zanjirli taqinchoqlardan 5tasi (ZT1-5) tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra qalayning miqdoriga nisbatan olinganda barcha namunalarda bir xillikka juda yaqin. Lekin namunalarning uchtasi ZT1, ZT2, ZT3 ruxning qiymatiga (11.5%, 10.8%, 11.1%) nisbatan bir biriga juda yaqin va buni latun deb sinflash mumkin (2-jadval). Qolgan ikkitasi ruxga nisbatan qo'rg'oshin miqdori (ZT4-12.4%, ZT5-20.5%) yuqori va tarkibida qalayning ham mavjudligini hisobga olsak, bu ikkita namunani ilmiy adabiyotlarda keltirilgan klassifikatsiya bo'yicha (Рузанов 2013: 347, Епимахов 2019: 432) qo'rg'oshin-rux-qalay bronza deb sinflash mumkin.

Belbog' taqinchoqlari tahlilida bronza tashkil etuvchi qo'rg'oshin BT1da 22.7% BT2da 16.3%ni tashkil qilmoqda. Shundan kelib chiqib qo'rg'oshinli bronza deb sinflash mumkin. Rux va qalayning miqdori qo'rg'oshinga nisbatan juda kam.

2-jadval. Taqinchoq va bezaklar (natijalar % hisobida keltirilgan)

№	Namuna	Al	Si	P	S	Fe	Ni	Cu	Zn	Sn	Sb	Pb
1	KT1		2.019		0.51	0.26	0.03	69.07		27.8		0.24
2	KT2	2.48	3.49	0.17	0.78	0.21		74.50		17.9		0.40
3	KT3	1.14	1.78	0.20		0.5	0.08	71.73	7.82	6.99	0.1	9.7
4	K1	0.31	0.5	0.02		0.22	0.14	80.80	13.4	3.04	0.04	1.5
5	K2	1.75	2.08	0.11	2.29	12.5	0.04	68.13	8.11	2.89	0.06	2.08
6	K3		1.04	0.06		0.23	0.12	82.24	11.7	3.37		1.24
7	BZ1	1.09	1.98	0.32	0.03	18.9	0.16	62.73	11.1	1.74	0.17	1.54
8	ZT1	0.57	1.01	0.16		0.36	0.14	81.56	11.5	3.21		1.47
9	ZT2	0.47	0.96	0.14		0.29	0.14	82.62	10.8	3.29		1.27
10	ZT3	0.85	1.00	0.14		0.33	0.14	80.25	11.1	3.75	0.05	2.31
11	ZT4	0.74	1.37	0.15	0.04	0.26	0.16	80.32	12.4	3.26		12.4
12	ZT5	0.82	1.23	0.09		0.33	0.18	77.11	14.1	3.98		20.5
13	BT1	0.70	0.79	0.18		0.14	0.07	71.78	1.11	2.22	0.19	22.7
14	BT2	0.52	0.78	0.35		0.13	0.08	78.76	0.84	2.01	0.13	16.3

Temir pichoq

Bir dona pichoq bo'lagi tadqiq qilindi. Tarkibida 97.16% temir mavjud bo'lib, qolgan elementlar 3% ga yaqin. Pichoq juda ko'p tashqi tasirda uchrashiga qaramasdan laboratoriya tozalashlaridan keyingi natijalar shuni ko'rsatdiki yillar davomida yer ostida saqlanishiga qaramasdan diffuziya hodisasiga kam uchragan (3-jadval).

3-jadval. Taqinchoq va bezaklar (natijalar % hisobida keltirilgan)

№	Namuna	Si	S	Fe	Ni	Pb
1	TP1	1.190	0.572	97.16	0.501	0.197

Xulosa.

Taqinchoq va bezaklarning hech biri butun saqlanmagan, shu sababli ularning har biri alohida namuna sifatida olinib, rentgen-fluoresent tahlili natijalari asosida xulosalar qilindi. Tahlil natijalari bir turdagi namunalar ham butunlay farq qilishi, mumkinligini tasdiqladi. Misol tariqasida, kiyim taqinchoqlarining natijalarini keltirishimiz mumkin.

Tadqiq etilgan piksidalardan P3, P10, P11, P12 va P13 namunalarida mis miqdori yuqori (94.18-95.33%) bo'lib, qolgan tarkibiy qismlar umumiy 5% atrofida. Shu sababli, ushbu piksidalar metallini "sof" mis deb tasniflash mumkin.

Qolgan piksidalarning asosiy tarkibiy qismi mis bo'lib, miqdori 54.52%-93.67% ni tashkil qiladi. Bronzaning asosiy tarkibiy qismlari bo'lgan rux, qalay va qo'rg'oshinlar orasida qalay miqdori yuqoriroq (3,38%–43,3%). Faqatgina P8 va P9 piksidalarda qo'rg'oshin miqdori qalayga nisbatan qisman yuqori. Yuqoridagilarga asoslanib, piksidalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

-P1,P2 ,P4, P5, P6, P7 — qalay tarkibli bronza piksidalar.

-P8, P9- qo'rg'oshin-qalay tarkibli bronzala piksidalar.

Kiyim taqinchoqlarining ikkitasi qalayli bronzadan tayyorlangan bo'lib, ularda qalay miqdori mos ravishda 17,9% (KT2) va 27,8% (KT1) ni tashkil qiladi. Faqat bittasida esa qo'rg'oshin 9,7%, rux 7,82% va qalay 6,99% bo'lib, bu namunani boshqalardan farqlantiradi.

Tadqiq qilingan uchta osma taqinchoq bo'laklari tahlil natijalariga ko'ra latundan tayyorlangan, lekin miqdoriy tarkibi bir-biridan farq qiladi.

osma taqinchoq qolgan ikkitasidan tarkibida temir (12.5%) mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu esa K2 osma taqinchoqining qadimda ishlatilgan taqinchoqlar, uy ro'zg'or buyumlari yoki qurol-yarog'lar metallidan qayta eritish yo'li bilan tayyorlangan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda bir dona bronza uzugi (BZ1) ko'rib chiqildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, uni latun deb sinflash mumkin. Lekin tarkibida temir miqdorining yuqoriligi uzuk metall buyumlarni qayta ishlash natijasida tayyorlanganini ko'rsatadi.

Zanjirli taqinchoqlardan 5 tasi (ZT1-5) tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, qalay miqdoriga nisbatan barcha namunalarda bir xillik kuzatiladi. Lekin namunalarining uchasi (ZT1, ZT2, ZT3) rux miqdoriga ko'ra latun deb tasniflanadi.

Qolgan ikkitasi esa ruxga nisbatan qo'rg'oshin miqdori (ZT4-12.4%, ZT5-20.5%) yuqori bo'lib, tarkibida qalay ham mavjud. Bu ikki namunani qo'rg'oshin-rux-qalay bronza deb tasniflash mumkin.

Belbog' taqinchoqlari tahlilida bronza tarkibidagi qo'rg'oshin BT1da 22.7% BT2da esa 16.3%ni tashkil qilmoqda. Shundan kelib chiqib qo'rg'oshinli bronza deb sinflash mumkin.

Bir dona pichoq bo'lagi tadqiq qilindi. Tarkibida 97.16% temir mavjud bo'lib, qolgan elementlar 3% ga yaqin. Pichoq ko'plab tashqi tasirlarga uchragan bo'lsa-da, diffuziya hodisasi kam kuzatilgan.

Maqolani tahrir qilishda va ilmiy ma'lumotlarni yig'ishda yaqindan yordam bergan professor A. Anorboyevga hamda katta ilmiy xodim I. Sharonovga mualliflar o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Ushbu maqola O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Tolib Musayevich Mo'minovning yorqin xotirasiga bag'ishlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Адаскин А. М.* Материаловедение (металлообработка): учебное пособие / А. М. Адаскин, В. М. Зуев. 6 изд., стер. М.: Издательский центр «Академия», 2009. 288 с.
- Анарбаев А. А.* Бусы из раннесредневекового городского некрополя северной Ферганы // Города центральной Азии на Великом Шёлковом пути. Самарканд, 1994. С. 12–13. *Анарбаев А. А.* Древний некрополь ферганцев // Природа, № 4. М., 1990. С. 57–61.
- Анарбаев А. А., Матбабаев Б. Х.* Раннесредневековый городской некрополь ферганцев // ИМКУ № 29 / Под ред. д.и.н. Т. Ш. Ширинов. Самарканд: Сугдиён, 1998. С. 77–95.
- Бейсенов А. З., Тишкин А. А.* Бронзовый наконечник стрелы из позвонка мужчины, погребённого в Тасмолинском кургане Койтас // Теория и практика археологических исследований. Том 34. № 2. Барнаул: Алтайского государственного университета, 2022. С. 172–185.
- Буряков Ю. Ф.* Горное дело и металлургия средневекового Илака. V — начало XIII века. М.: Наука, 1974. 140 с.
- Епимахов А. В.* Южный Урал в начале эпохи металлов. Бронзовый век / А. В. Епимахов и др. // История Южного Урала: в 8 т. Т. 2. Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2019. 432 с.
- Массон М. Е.* К истории горного дела на территории Узбекистана. Ташкент, 1953. 45 с.
- Мокрушин И. Г., Красновских М. П., Подосенова Ю. А., Саранулов А. Н.* Физико-химические методы анализа в археологических исследованиях // Труды Камской археолого-этнографической экспедиции Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета, вып. XVII. РФ, Пермь, 2020. С. 14–26. DOI: 10.24412/2658–7637–2020–17–14–26
- Матбабаев Б. Х.* Отчёт Ахсикентского отряда о работах в 1987. Руководитель А. Анарбаев. Самарканд, 1987. С. 115–134.
- Матбабаев Б. Х.* Могильник Мунчактепа в северной Фергане // Российская археология №3. М., 1999. С. 124–140.
- Никитин К., Мельникова Е. П.* Химия в реставрации. Справочное издание. Химия. Л., 1990. 304 с.
- Осинцев О. Е., Федоров В. Н.* Медь и медные сплавы. Отечественные и зарубежные марки. Справочник. М.: Машиностроение, 2004. 336 с.
- Пришибил Р.* Аналитические применения этилендиаминтетрауксусной кислоты и родственных соединений / Перевод с английского А.И. Волкова. М.: Мир, 1975. 533 с.
- Рахманов З. О.* Место и роль минеральных и рудных ресурсов Ферганской долины в сложении и развитии на её территории // «CHRONOS: Общественные науки»; 1 (21). Научный журнал. М., 2021. С. 4–8.
- Рузанов В. Д.* Металлообработка на юге Средней Азии в эпоху бронзы / Отв. ред: А. А. Абдуразаков. Самарканд: Институт археологии АН РУз., 2013. 347 с.
- Рузанова С. А.* Металлопроизводство на территории Северной Бактрии (результаты исследования материалов с поселения Кампыртепа) // Проблемы истории, филологии, культуры. 2016. С. 20–33.
- Рузанова С. А., Рощина И. А.* Химический состав металла наконечников стрел из могильника Южный Тагискен // Археология и палеоантропология евразийских степей и сопредельных территорий. М., 2010. С. 431–437.
- Степина И. В., Земскова О. В., Козлова И. В., Корытин А. А.* Химия в реставрации. Учеб. пособие. М.: МИСИ-МГСУ, 2020. 62 с.
- Храмченкова Р. Х., Шайхутдинова Е. Ф., Бугарчев А. И., Петров П. Н., Ситдииков А. Г.* Сравнительный анализ химического состава и структуры пореформенных серебряных монет Джучидов (по материалам раскопа CLXXIX Болгарского городища) // Нумизматические чтения Государственного исторического музея 2017 года. Москва, 23 и 24 ноября 2017 г. Материалы докладов и сообщений. М.: РИА Внешторгиздат, 2017. С. 97–104.
- Шайхутдинова Е. Ф., Храмченкова Р. Х., Хасанов Р. Р., Мухаметшин Д. Г., Ситдииков А. Г.* Серебро-висмутовая монета X в. эмиров Андарабы // Нумизматические чтения Государственного исторического музея 2017 года. Москва, 23 и 24 ноября 2017 г. Материалы докладов и сообщений. Москва: РИА Внешторгиздат, 2017. С. 69–74.
- Шаронов И. А., Алибеков А. С., Ахмедов Я. А., Салимов М. И., Сандибоев А. Н., Холматов А.* Нейтронно-активационный и гамма-спектроскопический анализ при исследовании некоторых объектов археометаллургии // Научный вестник Самаркандского Государственного Университета. Серия по точным и естественным наукам. 2022. 3 (133). С. 120–132.
- Шемаханская М. С.* Реставрация металла. Методические рекомендации / Всесоюзный научно-исследовательский институт реставрации. М., 1989. 156 с.
- Шубин Ю. П.* К вопросу о химическом составе металлических изделий эпохи энеолита-бронзы Днепро-Донского региона // Сборник научных трудов ДонГТУ. 2015. № 1 (44). С. 76–81.
- Applications of Nuclear Analytical Techniques to Investigate the Authenticity of Art Objects // IAEA Radiation Technology Series. Report of the Final Research Coordination Meeting. Coordinated Research Project. 3–7 November. Peru, 2008. 175 p.
- Abdurakhimov B. A., Kichanov S. E., Talmaçhi C., Kozlenko D. P., Talmaçhi G., Belozeroва N. M., Balaşoiu M., Belc M. C.* Studies of ancient pottery fragments from Dobrudja region of Romania using neutron diffraction,

- tomography and Raman spectroscopy // Journal of Archaeological Science: Reports. Elsevier (Netherlands), 2021a. Vol. 35. P. 1–7.
